

NAVOIY QALAMINING SEHRI

Dehqonova Tursunoy Raxmatullayevna

Andijon viloyati Ulug'nor tumani 13-maktab

E-mail: tilshunosLADY@gmail.com

Telefon: +998(93)259-90-70

Anotatsiya: Jahon adabiyotiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, unda o'z qalami, ijodi bilan nafaqat o'zi yashab o'tgan diyor uchun, balki butun dunyoga xizmat qilgan, dunyo tamadduniga katta hissa qo'shgan ijodkorlar talaygina. Biz ming chandon faxr etishimiz kerakki, bobomiz Alisher Navoiy ana shunday dunyo e'tirof etgan ijodkorlardandir. Allomaning birgina g'azal mulkining sultoni ekanligi yoki eng ko'p so'zdan foydalanganligi dalillari ham uning naqadar buyuk siymo ekanligi isbotidir. Biz bugungi maqolamizda ana shu ulug' siymoning ijod go'zalligi haqida bayon qilamiz.

Kalit so'zlar: Renessans, moziy, shuur, mumtoz adabiyot, sanj, ganj, kalim, Nizomiy Ganjaviy,

O'tmish va kelajak. Bu ikki tushunchani bog'lovchi – bugun. Uchinchi Renessansni barpo qilish uchun tarixga, aslimizga nazar tashlashimiz darkor. Qodiriy ta'biri bilan aytganda “Moziyga qaytib ish ko'rmoq xayrlidir”. Moziy qa'rida butun dunyoni ilm va ma'rifat bilan zabt etgan ajdodlarimiz bisyor. Buyuklar silsilasida o'ziga xos o'ringa ega bo'lgan Navoiy Hazratlarining bosib o'tgan ibratli yo'lini tahlil qilishning o'ziyoq yoshlar shuurida o'zbeklar asliyatini gavdalandiradi. Navoiyni tanimagan xalq, shoir sifatida e'tirof etmagan millat yo'q, menimcha.

O'zbek mumtoz adabiyotining buyuk mutafakkiri va shoiri A.Navoiydan bizga juda katta va ulkan adabiy meros yetib kelgan. Shoirning adabiy merosi asrlar davomida avlodlardan avlodlarga katta bir xazina sifatida o'zining durlarini sochmoqda. Bobomizning adabiy merosi bizga qadar qog'oz va qalam orqali yetib

kelgan. Sababi, shoir o'z his tuyg'ulari, ichki kechinmalarini qalam orqali qog'ozda ifodalagan. Shuning uchun ham Hazrat Navoiy "Qalam"ga juda katta e'tibor bergan va qalam haqida alohida ta'riflar bergan.

«Hayrat ul –Abror» dostonida esa qalam haqida shunday misralarni keltiradi:

Dema yilon, ajdar erur naqd sanj,
Muzmar aning javfida yuz turfa ganj.
Dud chiqib og'zidan ajdar kibi
Dudi aro har shaba gavhar kibi

Navoiy dastlab qalamni ilonga o'xshatadi; ilon egri-bugri yurish qilgani uchun og'zida muhra va ostida xazina bo'lar ekan. Bu baytda esa mubolag'ani yanada kuchaytirib, qalamni qimmatbaho xazinalar poyloqchisi ajdahoga o'xshatgan. Qalam ajdahoday og'zidan tutun(siyoh) chiqaradi, tutun ichidagi munchoq (tomchi) gavharga o'xshaydi.

Yana bir misrada shunday deydi:

Ajdar emaskim ,emas ajdar salim
Balkim degil oni,a soyi Kalim

Ya'ni: Kalim- Muso payg'ambarimizning laqabi, asoyi Kalim – Muso hassasi. Afsonaga ko'ra Muso hassasi mo'jizalar ko'rsatgan ekan. Bu baytda qalam o'sha hassaga o'xshatilgan. 44-bob 12-maqolat

“Farhod va Shirin “ dostonida ham Navoiy shunday deydi:

Qalam shunday bir chopqir otki, uning joyi falakning ustidadir. Lekin bu uchqur qora ot podshoh Xusravning Shabdiz ismli to'riq oti darajasida har qanday odamni qo'rquvga sola oladigan bo'lsada, uning ustiga insonning barmog'i chavandoz bo'lib minib olgan. Barmoqdagi bo'g'inlar go'yo uning belbog'i, tirnoqlari esa uning yuzidir.

U chopar ekan, o'z quyrug'ini bayroq qiladi. Uning boshidan oyog'i xuddi qulog'idek tilingan.

Yo'q, uni Shabdiz deb atama. U bamisoli bir xushovoz. Qanotsiz bo'la turib, har tomonga parvoz qila oladi. Uning tumshug'idan doim qora qahrabo tomib turadi. Lekin bu qahrabodan insonlarga gavharlar sochiladi.

Qo'y, uni qush ham dema. Undagi jism qushda yo'q. San'atlar hakami uni hech bir tengi yo'q tilsim qilib yaratgan. Umrida xastalik ko'rmagan bo'lsa ham, unda zaiflik g'olib bo'lib, orasidagi bo'shliqda yuzlab ma'nolar xazinasini yashiringan.

Uning bu xazinalaridan hech kim Ganjada yashagan xazina sochuvchi Nizomiy Ganjaviy kabi foydalanib, orzulariga yetgan emas.

U o'z ko'nglini ma'nolar xazinasiga aylantirgan bo'lib bu xazinaga har kim ham yo'l topa olmaydi.

Xulosa qilib aytganda Navoiy ijodi turkiy adabiyotning eng yuksak cho'qqisidir. Chunki hech kim unga qadar va undan keyin ham bu tilde "ko'p" va "xo'p" yozmagan.

So'zimni Abdulla Oripovning "O'zbekiston" she'ridan olingan misralar bilan yakunlayman.

Temur tig'I yetmagan joyni, Qalam bilan oldi Alisher.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Alisher Navoiy "Xayratul-Abror" dostoni
2. Alisher Navoiy "Farhod va Shirin" dostoni
3. A.Oripov "O'zbekiston" she'riy to'plami 1971-yil.